



IBN SINONING LIRIK MEROSI

Mansurova Shahnoza,
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU magistranti

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15207395>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ibn Sinoning turli asarlari tarkibida saqlanib qolgan she‘riy asarlari xususida so‘z yuritiladi. Kichik janrdagi she‘riylaridan tahlil qilinadi. Mavzusi va g‘iyasiga ko‘ra tasniflanadi.

Kalit so‘zlar: qomusiy olim, nazm, nasr, may, “Hayy ibn Yaqzan”, do‘st.

Husayn o‘g‘li Abdulloh - ko‘pchilik nazdida tibbiyot sohasining buyuk olimi. Turli kasalliklarni davolash yoki oldini olish uchun bergan maslahatlari, choralari hali-hanuz xalq orasida mashhur. Ibn Sino bilan bog‘liq rivoyatlarning kattagina qismida alloma tabib sifatida tasvirlanadi. Bugun u yoki bu odamdan bu siymoga tavsif berish so‘ralsa, albatta, “tabib”, “qomusiy olim” sifatlaridan ortig‘ini berishga qiynaladilar. Biroq Ibn Sino faqatgina tabib, qomusiy olimgina bo‘lib qolmay, yaxshigina adabiyotshunos, yaxshigina ijodkor hamdir. Uning asarlarining har bir misrasida olam-olam ma‘no bor. Turli falsafiy qarashlar allegoriya orqali o‘quvchi ongiga singdiriladi. Ibn Sinoning nasriy asarlarini mutolaa qilgan kitobxon olam va odam o‘rtasidagi munosabatni tahlil qilishni, atrofiga sinchkov nazar bilan qarashni boshlaydi. To‘rt nasriy qissasi – “Hay ibn Yaqzon”, “Tayr qissasi”, “Salomon va Absol” va “Yusuf qissasi” asarlarida esa komillika, ilmiy, ruhiy yetuklikka yetishish shartlarini tushuntirish maqsad qilinadi. Nazmiy asarlari esa hayotiy saboqlar berish, o‘qirmanga nasihat qilish, sog‘ tan va sog‘lom vujudga ega bo‘lishda nimalarga amal qilish borasidagi maslahatlarni o‘zida jamlagan.

Uni adabiyot olamiga tanitgan ilk asarlari nazmiy shaklda yaratilgan. Bu janrdagi asarlarning katta qismini g‘azal, ruboiy, qit‘a hamda hikmatli so‘zlar va baytlar tashkil etadi. Bu lirik janrlar Ibn Sinoning turli asarlari tarkibida saqlanib qolgan. Bu asarlarning ko‘pi tibbiyotga oid asarlardir. She‘rlar va ularning mazmuni bilan tanishish orqali bunga guvoh bo‘lishimiz mumkin. 1980-yilga kelib, O‘zbekistonning zabardast olim va tarjimonlari – Jamol Kamol, Abdusodiq Irisov, Shoislom Shomammedovlar Ibn Sinoning saqlanib qolgan she‘rlarini jamlab to‘plam holida nashr ettirdilar [Abu Ali Ibn Sino, 1980:132]. Mazkur asarda Ibn Sinoning “Urjuza” asari, 9 nasihati, Al-Alaviyga javob tariqasida yozilgan bir g‘azali (A. Irisov tarjimasida) va 25 ta ruboiy (Jamol Kamol tarjimasida), 2ta g‘azal, 13ta



bayt, ikki, to‘rt, olti baytdan iborat qit‘alari (Sh. Shomammedov tarjimasida) o‘rin olgan. Qolaversa, A. Irisovning o‘z tadqiqot ishida yuqorida ta‘kidlangan to‘plamdan o‘rin olmagan 11 she‘r va 2 bayt haqida ma‘lumot beradi. Olimning ilmiy tadqiqoti orqali Ibn Sino she‘rlarining forsiy tildagi varianti hamda tahlili bilan tanishishimiz mumkin [A.Irisov, 1962:39].

Shoir lirik merosidagi mavzularning xilma-xilligi o‘quvchini o‘ziga jalb etadi. Lirik merosdagi 25 ruboiy ijtimoiy masalalarga, may va u haqidagi nasihatlar, nafs, dunyo va oxirat, do‘st tanlash, haqqa yetishish, o‘zining aql-zakosi, erishganlari-yu erisholmaganlari, ishq va oshiqlik mavzulariga bag‘ishlangan. Bir o‘qiganda ruboiylarning asl ma‘nosini anglash mushkulroq. Ayniqsa, may va ishq nomi tilga olingan ruboiylari qayta-qayta o‘qishni va mazmuni borasida chuqur mulohaza yuritishni talab etadi.

Ibn Sinoning uch g‘azalidan biri - Al-Alaviyga bag‘ishlab yozilgan. Yetti baytni tashkil etadi. G‘azalni o‘qish davomida lirik qahramon tabib sifatida bemoriga nasihat qiladi. Tangr shifo bersin deb tilak bildirish bilan boshlanib, so‘ngra barcha dardlarning davosi sifatida ishol qilish maslahat beriladi. Keyingi to‘rt baytda esa Ibn Sino tabib sifatida bemor Al-Alaviyga u amal qilishi kerak bo‘lgan ko‘rsatmalarni beradi. Ensasiga zulk qo‘yishi; sharobga qo‘l uzatmasligi; et yeyishni tark aylab, yengil taomlarni yeyishi; majnuntol novdasini ezib, gulobga qo‘shib, yuziga surtishi; kiyim kiyganda tugmalarini qattiq qadamasligi; har narsani bahona qilib baqirmasligini uqtiriladi. G‘azal maqtasi esa barcha shifokorlar beruvchi nasihatga o‘xshaydi.

Iloj shudir, har kishi ki aytganimg‘a qilgay amal,

Topgay shifo, ohista dard ariydi ul oshyonadin.

[Abu Ali ibn Sino, 1980:35]

Keyingi “Haqiqat tip-tiniq boda erur ruhning g‘izosi” deb boshlanuvchi g‘azali 10 baytni tashkil etadi. G‘azalda haqiqat tiniq mayga o‘xshatiladi. Tip-tiniq bodada inson o‘z aksini ko‘rganidek, asl haqiqat orqali inson o‘zligini topadi. Unda haqiqat ruhni poklovchi, inson ma‘naviyatini yuksaltiruvchi vosita sifatida ko‘riladi. Qolaversa, Ibn Sino mazkur g‘azalida taxallus qo‘llaydi. Arab tili va aruz vazni endi keng tarqala boshlagan bir davrda 10 baytdan iborat g‘azal yozish, maqta‘ida taxallus qo‘llash o‘sha davr adabiyotida katta hodisa edi.

“Mard kishiga o‘n xil ish doim harom, Oltisidan mard kishi xolis mudom”, matlasi bilan boshlanuvchi g‘azali Ibn Sinoning eng kichik hajmli g‘azalidir.



6 baytdan iborat. G‘azalda mard kishiga xos bo‘lgan xususiyatlar sanab o‘tiladi. G‘azal didaktik ahamiyatga egaligi tasvirlarning o‘ziga xosligi bilan boshqa g‘azallaridan ajralib turadi. Misol uchun ushbu g‘azalning oxirgi baytida falak – soqqaga o‘xshatiladi.

Falak – juft soqqa, olam taxtasidir,

Ajal o‘ynaydi, bizlar — donai xom. [Abu Ali ibn Sino, 1980:29]

G‘azalga ko‘ra, bu olam narda o‘yini o‘ynaladigan taxtadir. Qiziqarlisi, falakning nega aynan juft soqqaga o‘xshatilayotganidir. Falak bitta, narda o‘yinida esa ikki ishtirokchi uchun ikki soqqa bo‘ladi. Ikkinchi misrada o‘yinni ajal o‘ynashi, insonlar esa dona ekanligini hisobga olsak, juft soqqa jannat va do‘zax tasvirlarini berish uchun qo‘llangan bo‘lishi mumkin. Shuningdek, ko‘p hollarda narda o‘yinidagi soqqalar oq va qora rangda bo‘ladi. Bu esa adabiyotlarda jannatning oq rang, do‘zaxning qora rang tasvirida berilishiga o‘xshab ketadi. Ya‘ni bizlar shunchaki kelib-ketuvchilar, bizning boshimizdan kechiradiganlar ko‘pincha falakning ishlariga bog‘liq. Falak bizning qaysi o‘rinda turishimizni istasa, biz shu yerda turamiz. Yuqordi aytib o‘tilgan nashrda Ibn Sinoning uch qit‘asi keltirilgan bo‘lib, ularda ikkitasi hasbi hol xususiyatga ega. Bittasi ijtimoiy xarakterda bo‘lib, ilm va inson o‘rtasidagi bog‘liqlik tasviriga bag‘ishlanadi.

O‘n besh baytning uchtasi muhabbat mavzusida va yana uchtasi tibbiy nasihat berishga qaratilgan. Qolgan to‘qqiz bayt ijtimoiy masalalarga bag‘ishlangan bo‘lib, o‘zini qanday tutish kerakligi va bu dunyoning o‘tkinchi ekanligi haqida.

To‘qqiz nasihatning sakkiztasida kasal bo‘lganda nimalarga e‘tibor berish kerakligi, qanday qilib sog‘lom vujudga ega bo‘lish mumkinligi hamda dori-darmondan tiyilish kerakligi borasida nasihatlar beriladi. So‘nggi nasihatda esa No‘shirovon shohning yonidagi tabib Tayozuq shohiga shunday nahisatlarni qilgani haqida ma‘lumot beriladi. Ta‘kidlanganidek, Abu Alining may va mayparastlik tushunchasi bilan aloqador she‘rlari alohida tahlil talab mavzulardandir. Ba‘zi asarlarida may ichish va uning oqibatlarini tasvirlansa, boshqalarida may majoziy xarakterda tasvirlanadi.

Gar bodani goh-goh icharmen — xomlig‘,

Ammoki mudom ichar esam — badnomlig‘.

May shohu hakim u rind ichar ersa, na xush,

Gar boshqasi no‘sh aylasa — dushmankomlig‘.

[Abu Ali ibn Sino, 1980:24]



Ushbu ruboiyda may ichuvchilarga nisbatan jamiyatda mavjud bo‘lgan munosabat tasvirlanadi. Unga ko‘ra, may ichishning ayb yoki ayb bo‘lmasligi insonlarning qatlamiga bog‘liq. Ya‘ni may ichgan kishi jamiyatning quyi qatlamiga mansub bo‘lsa, u mayni kam ichsa ham, ko‘p ichsa ham ayb. Kam (goh-goh) ichsa, uni tajribasiz deb ayblashadi. Ko‘p (mudom) ichsa, nopok inson deb biladilar. Unga lug‘atlarida ichkilikbozlarga munosib qanday so‘z bo‘lsa, barisi bilan uning nomini badnomga chiqarishadi, yomonotliq qilishadi. Agar mayni avomdan boshqasi ichgudek bo‘lsa, ayb sanalmaydi. Odatiy hol sifatida qabul qilinadi. Ushbu tabaqaga mansub bo‘lmagan biri ichib ko‘rsin-chi, unga ham yomon nazar bilan qarashadi. Bizningcha, Ibn Sino bu yerda birgina may ichishga bo‘lgan munosabat orqali jamiyatda mavjud sinfiy adolatsizlik, ikkiyuzlamachilik, axloqiy me‘yorlar kishilarning toifasiga ko‘ra ishlashini tasvirlagan.

“Haqiqat tip-tiniq boda erur ruhning g‘izosi” deb boshlanuvchi g‘azalini har kim turlicha sharhlab kelmoqda. Ba‘zilar Ibn Sino bu g‘azalida haqiqiy mayni tasvirlagan, odilona me‘yor bilan ichilgan mayning zarari yo‘q, degan xulosa chiqaradilar [T.Mallikov, 2022:13]. G‘azalda sharob (may), paymona (qadah), va mahbub kabi so‘zlar razmiy ma‘noda qo‘llangan. She‘rning matla‘ va maqtasidan tashqari barcha qisimlarida may ichkilik ma‘nosida tasvirlanganga o‘xshaydi. Maqta‘dan oldingi ikki bayt begona bayt. G‘azalni o‘qish jarayonida ushbu misralar asl mayning tasviriga bag‘ishlangandek tuyiladi. Chuqurroq tahlil qilinsa hamda ma‘nosi oldingi va keyingi baytlar bilan bog‘lansa, baytning asl ichki ma‘nosi yuzaga chiqadi.

Sharobni ablah ichsa, chun gunohi haddidan oshgay,

Tilidin lof yog‘ilg‘ay, o‘zgarib fikri havosi.

[Abu Ali ibn Sino, 1980:16]

Sharob – haqiqat tasvirni ifodalayotgan ekan, nega ablah uni ichganda gunohi oshadi. Tilidan yolg‘on so‘zlar sochiladi? Ibn Sino fikriga ko‘ra, nodon bir kimsaga sharob (ma‘rifat) berilsa-yu, u uni to‘g‘ri “ichishni bilmasa”, sharobning salbiy ta‘siri yanada zo‘rayadi. Tafakkuri o‘zgarib, nafs va havoyi istaklarga ergashib ketadi. Fikri beqaror, nafsining istaklari o‘zgaradi. Johil johillik ko‘zi bilan haqiqatni ko‘rishga intilsa, haqiqat uni qo‘lida xarob bo‘ladi. Boshqalarga ham o‘z yanglishlarini, yolg‘onlarini tarqatadi.

Mazkur g‘azalning 5-6-baytlarida haqiqatdan tug‘iluvchi fazilatlar mayning ziyosiga qiyoslanadi. Mayning ziyosi dononi nodondan, rostni yolg‘ondan ajratishga yordam beradi. “Aql fatvosi”ga ko‘ra, haqiqat donolar uchun – halol, ahmoqlar uchun



– makruh, bilimdonga – halol, johilga – haromdir. Dono odam ma’rifat, haqiqat sharobidan ichsa, u haqiqatni, uning shartlarini tushuna oladi. Ruhiy poklanishi, yuksalishiga xizmat qiladi. Agar nodonlar undan tots, haqiqatning qattiq shartlari ularning tamoyillarini buzadi. Haqiqatning asl ma’nosini anglamaydi. Uni o‘z nafsi uchun qo‘llashga harakat qilaveradi.

G‘azal kuchli ramziy ma’no tashiydi. Turli o‘xshatish va qiyoslarga boy. Har bir misrada haqiqat turli narslarga qiyoslandi. 1-misrada tip-tiniq bodaga, 2-misrada lalisifat rangi aqiq toshiga, 3-misrada tong payti xummorlarning jomlariga quyilish jarayonida chiquvchi sadosi barbot sadosiga, 4-misrada u “padar pandi”ga o‘xshatiladi. Dastlabki uch misradagi o‘xshatishlarda haqiqatning “tashqi” xususiyatlarini tavsiflansa, to‘rtinchi misrada “ichki” xususiyatiga o‘tiladi. Ya’ni haqiqat - “Padar pandi kabi achchiq, ammo foydasi behad.” Maqta’da Ibn Sino o‘zining tanlagan yo‘li Haqning yo‘li ekanligini, bu yo‘lga ma’rifat ilmi bilan yetisha olishi mumkinligini ma’lum qiladi.

Abu Ali, tiniq mayni hakimona ichaver,

Xudo haqqi, shudir haqning yo‘lin topmoq davosi.

[Abu Ali ibn Sino, 1980:28]

Shuningdek, “Soqiy qadahi jur’ati joning qayda?”, “Soqiy jannati sof zuloling qani?” deb boshlanuvchi ruboiylarida ham may va soqiy, ular bilan bog‘liq detal, obrazlardan keng foydalanilgan. Ayniqsa, unda tiniq oyna, qiyshiq qumg‘on, singan safol, zilol suv kabi ramzlar Haq ishqiga talabgor kishilarning holatini ko‘rsatadi. Bu detallar esa oshiqqa “Taqvo qilmoq”, “Ichini yuvmoqlik...” kabi niyatlarini amalga oshirishda zarur bo‘lishini ta’kidlaydi.

Vaqlar o‘tib zamonaviylashuvga o‘tilsa-da, jamiyatdagi tengsizliklar, adolatsizliklar o‘zgarmaydi. Tabiiyki, bundan qalbi pok, xalqni o‘ylovchi insonlar aziyat chekadi. Ma’lumki, Ibn Sino ham hukmdorlardan, ko‘plab do‘st-dushmanlaridan aziyat chekadi. Nuh ibn Mansur adolatsizligidan, zulunkorligidan norozi bo‘lib qochib ketadi. Quyidagi ruboiyda ham ularga nisbatan “isyon” tasvirlangandek ko‘rinadi.

Har yerda jaholat haddan oshgan on,

Zamona jigaring qilur qaro qon,

Marvarid, gavharga to‘lurmi qo‘ling,

Ostonang ul yo‘g‘i gar bo‘lsa ummon.

[Abu Ali ibn Sino, 1980:26]

“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



Ruboiyning dastlabki ikki misrasidagi tasvirlarga ko‘ra, jamiyatdagi yuritilayotgan adolatsiz tuzum, jaholat shu darajaga yetganki, kishi yuragi undan qon bo‘lmasligi imkonsiz. Keyingi ikki misrada muallif tanqidni yanada kuchaytiradi. Jamiyatda adaloatsizliklar bir yon-u, endi hukumron tabaqa oddiy kishining moliga ko‘z tikib uni boshqa yondan yeyishga harakat qilayotgani Ibn Sinoning nafratini qo‘zg‘aydi. Birgina “ummon” so‘zi orqali bundaylar qanchalik ko‘p ekanligi, xalqning jonini so‘rishga tayyor ekanligini ko‘rsatadi.

Nima kelsa o‘z atrofingdagilardan ko‘rasan, deb bezijga aytilmagan. Ibn Sinoni ham ko‘rolmaydigan, yomonotliq qiluvchilar anchagina edi.

Do‘stim dushman bilan o‘tirmish bisyor,
Endi o‘tirmayman u bilan zinhor.
Parhez qil shakardan zahari bo‘lsa,
Pashshadan qoch, qo‘nish joyi bo‘lsa mor.
[Abu Ali ibn Sino, 1980:27]

Ibn Sino do‘st tanlashda ehtiyot bo‘lish haqida nasihat qiladi. Har qanday yaxshi narsa ortida ham yomonlik bo‘lishi mumkin. “Shakar”, “pashsha” tasvirlari bilan do‘stning ahvolotini ko‘rsatib, agar shakarda zahar bo‘lsa yoki pashshaning qo‘nish joyida ilon bo‘lsa, bu ikkisidan qochmoq kerakligi uqtiriladi. Qaysidir ma’noda mazkur she’rda ham Ibn Sinoning hasbi holi tasvirlanganga o‘xshaydi. 1021-yilda Sham-ul Davla vafotidan keyin Ibn Sinoni mamlakatga sig‘dirishmaydi. Abu-G‘olibning uyida yashirinishga majbur bo‘ladi. Keyinchalik, Isfahon hokimi bilan yozishmalariga ko‘ra, Fahrijon qal’asida hibsdan saqlanadi [T.Malikov, 2023:34]. Hibsdan chiqib Hamadonga va unda Isfahonga Alovuddavlaning huzuriga qochadi. Uning yuqoridagi ruboiysi ham shu yillarda – Ibn Sinoning qamoqdalik davrida yoki yurtma-yurt kezib yurgan paytlarida yozilgan bo‘lishi mumkin. Ma’lumotlarga qaraganda, muallifning “Hayy ibn Yaqzon” qissasi ham u Fahrijon qal’asida qamoqda bo‘lganda yozilgan [A.Irisov, 1962:56] E’tiborga molik jihati, ushbu asarning kirish qismida ham do‘st tanlash, do‘st tanlashda nimlarga e’tibor berish kerakligi haqida yo‘lovchiga nasihat qilinadi. Yo‘lovchi keksa allomaning fikrlari bilan atrofidagi do‘stlarining asl muddaosini tushinib yetadi. Xullas, “Do‘stim dushman bilan o‘tirmish bisyor” misrasi bilan boshlanuvchi ruboiysi “Hayy ibn Yaqzan” mazmuniy jihatdan bir-biriga juda yaqin. Ikki asarda ham insonlarga do‘st tanlash borasida ko‘rsatmalar beriladi. Ibn Sino boshqa bir ruboiysida esa nodonlar orasida so‘zlanadigan aqilli so‘zlar faqat kishining yuzini qora bo‘lishiga sabab bo‘ladi, degan fikrga keladi.



O‘zin dono deb bilgan uch-to‘rt nodon,
Eshak tabiatini qilur namoyon.
Bular suhbatida sen ham eshak bo‘l,
Bo‘lmasa “kofir” deb qilishar e‘lon.
[Abu Ali ibn Sino, 1980:26]

Ibn Sino uchun dilidagi barcha o‘ylarni aytishda nazm eng yaxshi vosita edi. U tanqidni ham, qalbidagi isyonni ham she‘r orqali yuzaga chiqargan. Shoir jamiyatdagi unga bo‘lgan munosabatning noto‘g‘riligini, uning ilm yo‘lida qilgan ishlarini ko‘ra oladigan “odil ko‘z” bo‘lmaganligi uchun doim ayb izlashganidan norozi bo‘ladi [Abu Ali ibn Sino, 1980:30]. Biroq Ibn Sino o‘z ilmini qadrlagan, uni to‘g‘ri baholay olganlardan edi. Qit‘alaridan birida atrofida qilganlarni “kuchuk”ka va ularning tinimsiz qilgan g‘iybatlarini kuchukning akkilashiga o‘xshatadi. Buning zidi o‘laroq o‘zini sherga qiyoslaydi.

Ulug‘ligim tufayli dillarida vahmalar zohir,
Yo‘q ersa, shafqat etmay, aylashardi betinim tahqir.
Meni tutmoqchi bo‘lganlar qazib choh, aylashar “av-av”,
Kuchuk ovozi haryoqda, faqat men bunda sherman, sher.
[Abu Ali ibn Sino, 1980:30]

Qit‘aning to‘rtinchi misrasidagi “sher” so‘zining ikki marotaba takrorlanishi allomaning unga choh qazib, chohning atrofida “av-av”lagan holda turgan dushmanlariga nisbatan nafratini aks ettirishga xizmat qilgan. Ajab emaski, muallifning ushbu she‘ri ham u qamoqdaligi paytida yozilgan bo‘lsa. Chunki o‘sha paytlarda Ibn Sinoning dushmanlari ko‘payib, ilmiga hasad qilgan borki, uni obro‘sizlantirishga harakat qilard edi.

Ibn Sino shoir sifatida turli adabiy mavzularda ijod qildi. Ammo uning ishqiy mavzudagi ijodiy merosi barcha uchun birdek qiziq. Turli masalarda insonlarga yo‘l ko‘rsatgan olim ishq va oshiqlik, muhabbatga qanday munosabat bildirgan ekan?

So‘rdimki:—Nechun shikasta, nolondirman?
Aydi:— Sababni men, guli xandondirman.
So‘rdimki:—Nechun ko‘yingda giryondirman?
Aydiki sanam:—Sen tanu, men jondirman...
[Abu Ali ibn Sino, 1980:25]

Ha, Ibn Sino ham barcha oshiqlardek yorining – guli xandonining ishqida shikasta bo‘lgan ekan, ko‘z yoshlar to‘kkan ekan. Uning oshiqona ruhda yozilgan



asarlarida yor tasviri juda go‘zal chiziladi. Ibn Sinoning oshiqona she‘rlarining soni u qadar ham ko‘p emas. Biroq shoirlarning lug‘atida yor tavsifi uchun qanday go‘zal so‘zlar bo‘lsa, barchasini Ibn Sinoning shu oz sonli she‘rlarida ko‘rishimiz mumkin. Quyidagu she‘rda ham, oshiq yorning yuzini oftobga, yuzini to‘sisib turuvchi zulflarini quyoshning soyasiga mengzaydi.

Yuzing kabi oftobi purmoya qani?

Zulfing kabi har shomu sahar soya qani?

Ruboiyning keyingi ikki misrasida oshiqona ruhdan falsafiylikka o‘tiladi. Tanosub san‘ati orqali tavba va gunohni bir-biriga yaqin qo‘yadi. O‘zini tavba qilgan inson sanab, yorning yuziga boqmoqni gunoh hisoblaydi.

Bu tavbaga ul gunoh nechuk ziynat emish?

Bu ikkasidek hamdamu hamsoya qani?

Buyuk ma‘rifatparvar adib – Abu Ali Ibn Sino nafaqat ilmiy bilimlar, balki o‘lmas adabiy yodgorliklari bilan avlodlarga buyuk meros qoldirdi [A.Irisov, 1962:39]. Turli g‘oyalarni o‘z adabiy asarlari bilan targ‘ib qilishga hissa qo‘shdi. Adabiyot olamida ham katta yangilik qildi. Adabiyotga tibbiy tushunchalarni va tibbiy uslubni olib kirdi. Hali tabiblik shuhratiga erishmagan chog‘larida to‘qqiz doston yaratdi. A.Irisov ma‘lumotlariga ko‘ra, bu to‘qqiz dostonning sakkiztasi tibbiyotga bag‘ishlangan. Ko‘plab manbalarda bu dostonlar umumiy nom “Urjuza” nomi bilan qayd etiladi. Hajmi 1326 baytni tashkil qiladi [T.Malikov, 2023:26]. Mazkur asarda tabait – inson – tibbiyot o‘rtasidagi munosabat badiiy uslubda tushuntirib beriladi. Bu asarda Ibn Sino tibbiy bilimlarini shoirlilik san‘ati bilan uyg‘unlashtirib go‘zal adabiyot namunasi yaratadi.

Ibn Sino ham adabiyotning kuchiga katta baho bergan. Uni kishilarning ongiga tez ta‘sir qiluvchi vosita deb hisoblagan. Shu bilan birgalikda, ma‘lum bir tibbiy bilimni yoki faktni ikki xil uslubda berish orqali ko‘proq kishiga yetkazish ham maqsad qilingan bo‘lishi mumkin. “Tib qonunlari” va “Urjuza” asarlaridagi informatsiyalarni bir biriga taqqoslasash orqali bunga aniqlik kiritish mumkin. Misol uchun “Tib qonunlari”ning 1-kitobidagi 1- “Birinchi ta‘lim. Birinchi ta‘limning avvalgi fasli. Tib ta‘rifida” bobidan olingan quyidagi parcha nasriy bayon uslubida yozilgan: “Tib nazariy va amaliy bo‘ladi, deyilganda bundan maqsad, shu mavzuda bahs qiluvchilarning ko‘plari o‘ylagani singari, tibning bir qismi - ilmni o‘rganishdan, ikkinchi qismi - amaliy ish bilan shug‘ullanishdan iborat, deb tushunmaslik kerak, balki sen bundan boshqa bir narsani tushunishing lozim. U narsa shuki, tibning ikkala qismidan hech biri ilmdan boshqa narsa emas. Lekin ulardan biri

**“O‘ZBEK FILOLOGIYASI:
MUAMMO VA YECHIMLAR”
mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani**



tib qoidalarining ilmi bo‘lib, ikkinchi ilm esa amaliy ishlarning qanday bo‘lishidir. Bularning birinchisi ilm yoki nazariya atalib, ikkinchisi amaliyot deb aytiladi” [Abu Ali ibnSino, 1954:350]. Uning bu fikrlari “Urjuza”da qisqa va sodda, izohlarsiz bayon etiladi.

Ilmiy, amaliyga bo‘lindi tib avval,
Bo‘ldi uch narsadan ilmiysi mukammal.

[Abu Ali ibn Sino, 1980:38]

“Tib qonunlari”dagi ilmiy nazariya Urjuza deb nomlanuvchi adabiy shaklga solinadi. Bu ilmiy uslubdagi matnni o‘zlashtirishni osonlashtiradi. Birinchidan, she‘riy uslubdagi berilgan matnni nasriy uslubdagi matnga qaraganda yod olish samaraliroq. Ikkinchidan, ushbu shakl qofiya va vaznga asoslangani uchun uni qayta xotirlash oson.

“Urjuza”da mijozlar haqida, a‘zolar haqida, nafsoniy quvvatlar, makon va ob-havo haqida, yeyish va ichish, uyqu va uyg‘oqlik, kasallik sabablari, yurak ishlari haqida va yana shu kabi bir qancha tibbiy bilimlar haqida so‘z yuritiladi. Ibn Sino fikricha, inson mijozi ularning tabiatiga qarab unsurlarga taqsimlanadi. Bu davolash jarayonida e‘tibor qaratilishi kerak bo‘lgan jihatlardandir. Bu to‘rt unsur to‘rt rukn bo‘lib, o‘ziga xos, bir-biriga o‘xshamagan xarakter-xususiyatlarga ega. Xuddi insonlar kabi. Eng qizig‘i, Ibn Sino agar tuproq, olov, havo, suv bir ruknlarda bo‘lganida, bu olamda hech bir inson xasta bo‘lmas edi, deydi. Bu to‘rt unsurga ko‘ra inson organizmlari va ularning xastalikka moyilliklari, kasallikni qanchalik tez yenga olishlari ham shu unsurlarga, mijozlari qaysi bir unsurga mansubligiga bog‘liq.

Badan bu unsurlarning qorishig‘idan paydo bo‘ladi, odamzodning ta‘ni vafotidan so‘ng ham bu to‘rt unsurga qorishadi. Demak, inson to‘rt unurning hosilasi.

Bilsang, tabiiy narsalar – ruknlarda,
Ular qorishishidan paydo bo‘lur badan.
Bu xususda Buqrot qavli sahih o‘lur,
Tuproq, olov, suv ham havo manba bo‘lur.
Unga dalil: jism halok bo‘lsa magar,
Muqarrarki, to‘rt unsurga yana qaytar.
Ruknlar bo‘lsa bir xil tabiatli,
Ko‘rolmasding kasal bo‘lgan tirik zotni.
[Abu Ali ibn Sino, 1980:]

“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



Misralardan chiqadigan xulosalar faqatgina, inson dardiga darmon topishda diqqat qilishi kerak bo‘lgan jarayonlarni o‘rgatmaydi. Olamning yaratilishi, uni bor qilib turgan unsurlar haqida bilim beradi.

Abu Alining lirik va nasriy asarlari kishini falsafiy mushohada qilishga undaydi. Ularda barkamollikka yetish uchun nimalar qilish kerakligi, qanday illatlardan uzoq turish haqida maslahatlar beriladi. Tibbiy bilimlarini adabiyot bilan bog‘laydi. Ularda salomatlikni saqlash, sog‘ tanga ega bo‘lish uchun nimalarga e‘tibor berish, kishi o‘zini qanday tutishi kerakligi haqida nasihatlar qiladi.

Foydanilgan adabiyotlar:

1. Abu Ali ibn Sino. Salomon va Ibsol: She‘rlar, qissalar. Tarjimonlar: Sh. Shomuhamsdov va boshqalar. - T: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti. 1980. — 132 b.
2. Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari. I kitob. – Toshkent: O‘zbekiston SSR fanlar akademiyasi nashriyoti. 1954. - 530 b.
3. Irisov A. Ibn Sino – ma‘rifatparvar adib. – Toshkent: 1962. – 39 b.
4. Malikov T. İBN SİNA. Həyy ibn Yəqzan, Quş Risaləsi. – Boku: BaşlaKitab, 2023 – 166 b.